

DOSTONLARDAGI OBRAZLARNING AHAMIYATI

Xurramova Sevinch Abdullayevna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabsi.

Ergasheva Rayxon O'tkirovna

Ilmiy rahbar. TISU o'qituvchisi.

xsevinch405@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.18207163>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek xalq dostonlarida uchraydigan eng asosiy syujet modellarining shakllanishi, ularning epik tuzilishi va badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi.

Dostonlarda qahramonlarning tug'ilishi, voyaga yetishi sevgi va sadoqat, mativlar, safar va sinovlar, yovuz kuchlar ustidan g'alaba hamda baxtli yakun kabi barqaror syujet modellari yotitiladi.

Kalit so'zlar: qahramon, baxshilar, mativ, badiiylilik, syujet, pir, eranlar, obraz.

THE IMPORTANCE OF IMAGES IN EPICS

Abstract. This article analyzes the formation of the main plot models found in Uzbek folk epics, their epic structure and artistic features. The epics contain stable plot models such as the birth of heroes, their coming of age, love and loyalty, motifs, journeys and trials, victory over evil forces, and happy ending.

Key words: hero, bakhshi, subject, artistic creation, plot, pir irans, phraz, epic.

ЗНАЧЕНИЕ ОБРАЗОВ В ПОСЛАНИЯХ

Аннотация. В статье анализируется формирование основных сюжетных моделей узбекских народных эпосов их эпическая структура и художественные особенности. В эпосах присутствуют устойчивые сюжетные модели таковы как рождение героев их взросление любовь и верность мотивы путешествий и испытаний победа над злыми силами и счастливый финал.

Ключевые слова: герой, бахши, мотив, художественность, сюжет, пир, эранс, образ, эпос.

Kirish

O'zbek xalq og'zaki ijodining eng qadimiy turi -dostonchlik hisoblanadi. Dostonlar asrlar davomida xalq donoligi, estetik qarashlari va tarixiy tafakkurining yorqin ifodasi bo'lib kelgan.

Dostonlar asosan xalqning orzu-umidlari, tarixi, kurashi keng ko'lamda tasvirlanadi.

Ba'zi dostonlar bir qarashda turli mavzuda ko'rinsada, ularning barchasini birlashtirib turuvchi umumiy syujet chiziqlari mavjud. Dostonlarda voqealar uzoq vaqt davomida, ko'plab joylarda sodir bo'ladi, afsonaviy kuchlar, sehr, orzularning ro'yobi kabilar tez-tez uchraydi.

Dostonlar bir necha asrlar davomida xalq madaniyatining ajralmas qismiga aylangan.

Dostonlarda janrning bosh xususiyati- voqealarning keng qamrovi, qahramonlarning ideal obrazda tasvirlanishi, badiiy tilda ifodalangan dramatik syujet va musiqiy- ohangdor nutqidir.

Metadologiya

Ergash Jumanbulbul o'g'li 1925-yilda Samarqandga kelgan.1926-1928- yillarda Bulung'ir tumani Qirshodi qishlog'ida, Po'ltan shoir, Fozil Yo'ldosh o'g'li birgalikda yod bilgan dostonlarini yozdirish va o'zi yozib qoldirish bilan shug'ullangan. Ergash Jumanbulbul xalq dostonlarining barcha janrlarini bilgan. Dostonlarning g'oyaviyligi, xalqchilligi, badiiy go'zalligi uchun kurashgan.

Qahramonlarning dunyoga kelishi.

Dostonning dastlabki syujet bo'lagi bo'lib, mo'jizaviy tarzda, ya'ni ota-onaning uzoq yillik orzusi, duo-iltijosi natijasida sodir bo'ladi. Bu syujet esa qahramonning buyuklikda, noodatiy xislati bilan tug'ilganini ifodalaydi. Alpomish, Gorog'li turkumlari bunga misol bo'ladi.

Alpomish dostonidagi Alpomish qahramonning tug'ilishi ham g'ayro-oddiy bo'lib tasvirlangan. Alpomish va Barchinoy tug'ilishi uchun Boybo'ri va Boysari Hazrati g'orida 40kun bo'lishi va farzandalarga xizarning o'zi ism qo'yishi bu asar davomida qahramonlarning noodatiy xislatlaridan belgi hisoblanadi. (1.12sahifa) Alpimosh mard, sadoqatli, jasur, komil inson bo'lib ulg'ayadi. Alpomishda do'stga va yorga bo'lgan sadoqat tasvirlandi. U Qorajon bilan do'st bo'ladi, asosan Qorajon obrazi voqealar rivojida Alpomishga yordam berilishi uchun jo'natilgan. (69-sahifa)

Muhabbat va vafodorlik syujetlari.

Ko'p hollarda dostonlarda muhabbat qahramonning kuchi sifatida namoyon bo'ladi. Shu kabi dostonlarda bir qancha qiyinchliklardan o'tishi yorini topishi va uni qutqarishi kabi qahramonliklarni bajaradi va oshiqlar o'z sevgisini muhabbati va vafosini shu to'siqlarni yengish bilan isbotlaydi. Malikai ayyorni(2.125-sahifa) visoliga yetishish uchun Avazxon uni bir necha yil izlashi, devlar va ajdarholar bilan kurashishi qahramonliklar ko'rsatib malikaning yoniga yetib kelashi. Bu kabi dostonlar turkumiga Alpomish dostonini ham misol qilib ola olamiz.

Alpomish ham yori uchun Mastona kampir va uning o'gillari bilan kurash tushishi va bir necha shartlarni bajarishi bilan malikai ayyor dostoniga o'xshashlik jihatlar mavjud. Bu dostonlar turkumida sevgi, sadoqat, muhabbat egalari doimo g'olib bo'lishi tasvirlanadi.

Dostonlarda pir va eranlar obrazlarining o'xshashligi.

O'zbek xalq dostonlarida pirlar va eranlar qahramonning ruhiy yo'lboshchisi sifatida muhim o'rin tutadi. Asosan pir va eran obrazlari og'ir damlarda yordam berish uchun paydo bo'ladi va qahramonga yordam berish bilan bir qatorda dostonni qiziqarli bo'lib davom etishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Pirlar odatda qari, dono inson bo'lib, qahramonni qo'llab quvvatlaydi. Eranlar esa jasur, tajribali, dono epik qahramon bo'lib,ikki obrazlar ham qahramonning yo'lini yorituvchi, xatolarda qaytaruvchi obraz hisoblanadi.

Zulfizar dostonida Chamidxon folbin ham eranlar obrazida ishtirok etgan, ammo bunda qahramonga yordam emas balki uning yo'lidan chiqib unga turli xil tuzoqlar va hiylalar orqali yomonliklar qiladi.(3.12-sahifa)Bunda doim eranlar ijobiy obrazlarda emas, balki salbiy obrazlarda ishtirok etishini guvohi bo'lamiz.Chamidxonning hiyla – va nayranglari asarning davomiyligini saqlab turadi.Zulfizar ` obrazini saqodaqli vafoli jasur ayol sifatida olishimiz mumkin. Negaki u Chamidxonni o'ldirishda yoriga yordam beradi.

Mast poshshodagi Chordana chol yovuz zulmkor doim yomonliklar qiladi, hiyla nayranglar orqali oshiqlarga to'sqinlik qilishga urinadi oshiqlarni bir- biridan ayirmoqchi bo'ladi. (4.110-sahifa)

Shirin va Shakar dostonidagi Kenjaoyim obrazida ayyollarning ayyorligi xiyla va nayranglar tuxmat kabi yomon illatlar yoritib berilgan. Bunda Kenjaoyim Shirin va Shakarni podshohga tuxmat orqali farzandlarni yomon ko'rsatishi va ularni qatlga hukm qildirishi oraqali ayol alamidan chiqishi va o'chini olishi tasvirlangan. (5.38-sahifa)

Ravshan va Go'ro'g'li kabi qahramonlar kuch qudrat va oliyanoblik, fidoyilik timsoli hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Dostonlardagi asosiy obrazlar asarning g'oyasini ochadi, xalqning ideal qahramoni haqida tasavvurlarni shakllantiradi va milliy qadriyatlar, urf-odatlarimizni avlodan avlodga yetkazishga muhim rol o'ynaydi. Dostonlardagi obrazlar milliy ruhiyat, tarbiyaviy g'oyalar ko'zgusi hisoblanadi. Dostonlar orqali vatanga yorga bo'lgan sevgi muhabbat sadoqat tushunchalarini anglashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. Alpomish "O'zbek xalq og'zaki ijodi" Toshkent "Yangi nashr"2019
2. Malikai ayyor „o'zbek xalq og'zaki ijodi" Toshkent 2024
3. Zulfizar „o'zbek xalq og'zaki ijodi" Toshkent
4. Mastposhsho „o'zbek xalq og'zaki ijodi
5. Kuntug'mish"O'zbek xalq og'zaki ijodi" Toshkent 2024
6. Oxunjon Safarov "O'zbek xalq og'zaki ijodi"-Toshkent 2010
7. Ravshan"O'zbek xalq og'zaki ijodi" Toshkent 2024